

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2019 yil yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
823,5 mlrd. so`m
Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi – **23,1 %**
Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi –
57,0 %
Norasmiy sektor ulushi
– **19,9 %**



Viloyatimizda qurilish faoliyati investisiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatida jami 823,5 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 foizni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 190,0 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 23,1 foizni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 86,0 foizni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,0 foizni yoki 469,5 mlrd. so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 19,9 foiz ulush yoki 164,0 mlrd. so`m qurilish ishlari to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 127,7 foizni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

hajmi - 190,0 mlrd. so`m

o'sish sur'ati - 86,0 %

ulushi - 23,1 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

hajmi - 469,5 mlrd. so`m

o'sish sur'ati - 100,7 %

ulushi - 57,0 %


Norasmiy sektor

hajmi - 164,0 mlrd. so`m

o'sish sur'ati - 127,7 %

ulushi - 19,9 %

2019 yil yanvar-aprel oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmida 77,9 foizni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 5,4 foizga ko'paydi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish



bo'yicha qurilish ishlari hajmidagi ulushi joriy davrda 9,4 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 1,1 foizga ko'paydi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 12,7 foiz ulush to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davri ulushiga nisbatan 6,5 foizga kamaydi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2018 yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 141,7 mlrd. so`m, jami qurilish ishlaridagi ulushi 17,2 foizni tashkil etdi

Mazkur itisodiy faoliyat turi bo`yicha kichik tashkilotlar va mikrofirmalar qurilish ishlari hajmi 335,4 mlrd. so`mni, jamiga nisbatan ulushi 40,7 foizni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida norasmiy sektorining 164,0 mlrd. so`mni, ulushi 19,9 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida jami qurilish ishlari faoliyat turlari ulushi bo`yicha ma'lumotlar.

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 17,2 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 40,8 %
- Norasmiy sektor - 19,9 %

Fuqarolik ob'ektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 3,5 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 5,9 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 2,6 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 10,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 3,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 5,9 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 2,6 foizni tashkil etdi. Shu jumladan kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 10,1 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari

mlrd. so`m

	Qurilish ishlari, xizmatlar - jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	823,5	641,1	77,7	104,7
Navoiy shahar	237,0	184,5	22,4	30,1
Zarafshon shahar	192,0	149,5	18,1	24,4
tumanlar:				
Karmana	73,8	57,5	7,0	9,3
Konimex	5,3	4,1	0,5	0,7
Qiziltepa	143,8	111,9	13,6	18,3
Navbahor	54,1	42,1	5,1	6,9
Nurota	47,9	37,3	4,5	6,1
Tomdi	4,0	3,1	0,4	0,5
Uchquduq	13,3	10,3	1,3	1,7
Xatirchi	52,3	40,7	4,9	6,7

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 469,5 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 57,0 foizni) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,2 foizga ko'paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 190,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 23,1 foizni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 3,8 foizga kamaydi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 19,9 foizni yoki 164,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 3,6 foizga ko'paydi.



bajarilgan.

Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Navoiy shahrida qurilish ishlari hajmi 175,6 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,6 foizga qurilish ishlari ko'p bajarilgan, Nurota tumanida 123,3 foizni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,4 foizga ko'p qurilish ishlari

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining eng ko`p ulushi Tomdi tumani 2,3 martaga va Navoiy shahar 175,6 foizni tashkil etdi, Nurota, Qiziltepa tumanlarida mos ravishda, 123,3 va 109,9 foizni tashkil etib viloyatining o`shish sur`atiga keskin ravishda o`z ta`sirini ko`rsatmoqda.



Navoiy viloyati

Qurilish ishlarining pudrat tashkilotlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati Zarafshon shahrida kuzatildi.

- “Auminzo-Amantay” konida oltin-ma`danli rudalarni qazib olish va qayta ishlash bo`yicha konlarni qurish (GMZ-5) (I-II bosqich);


- “Amudaryo-Zarafshon” suv o`tkazgichining 3-bo`ginini qurish, nasos stantsiyalarini rekonstruktsiya qilish;

- “Ko`kpatas” va “Daugiztau” konlarida oltinni ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirish

ishlari joriy yilda ham davom ettirilmoqda.



Hududlar kesimida qurilish ishlari,%



Mulkchilik shakllari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 642,3 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmining 77,9 foizini tashkil qildi.

Joriy davrda shahar va tumanlar kesimida eng yuqori nodavlat sektorining ulushi Navoiy shahrida jami qurilish ishlari hajmida 24,6 foizni tashkil qildi. Qiziltepa tumani bo`yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 100,0 foizni tashkil qildi. Karmana tumani bo`yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 100,0 foizni tashkil qildi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 181,2 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmining 21,6 foizini tashkil qildi. Zarafshon shahrida jami qurilish ishlari hajmida davlat sektorining ulushi 19,4 foizni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 3,8 foizga kam bajarilgan.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

	<i>Jami</i>		<i>Shu jumladan:</i>	
			<i>Yirik qurilish tashkilotlari</i>	
	<i>Mlrd. so`m</i>	<i>O`sinh sur`ati, foizda</i>	<i>Mlrd. so`m</i>	<i>O`sinh sur`ati, foizda</i>
Navoiy viloyati	823,5	101,1	190,0	86,0
Navoiy sh.	237,0	175,6	11,5	65,9
Zarafshon sh.	192,0	89,8	159,4	84,6
tumanlar:				
Karmana	73,8	87,4	5,1	1057,8
Konimex	5,3	26,0	-	-
Qiziltepa	143,8	109,9	12,8	258,8
Navbahor	54,1	82,3	-	-
Nurota	47,9	123,3	-	-
Tomdi	4,0	236,0	-	-
Uchquduq	13,3	70,9	-	-
Xatirchi	52,3	50,0	1,2	31,8

**2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
davlat mulkchilik shakllari bo`yicha
qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari, xizmatlar - jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	181,2	134,2	25,7	21,3
Navoiy shahar	5,4	1,6	3,8	-
Zarafshon shahar	159,4	132,6	5,5	21,3
tumanlar:				
Karmana	6,1	-	6,1	-
Konimex	-	-	-	-
Qiziltepa	1,6	-	1,6	-
Navbahor	-	-	-	-
Nurota	2,4	-	2,4	-
Tomdi	2,0	-	2,0	-
Uchquduq	4,2	-	4,2	-
Xatirchi	-	-	-	-

**2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
nodavlat mulkchilik shakllari bo`yicha
qurilish ishlari**

mlrd. so`m

	Qurilish ishlari, xizmatlar - jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	642,3	506,9	51,9	83,4
Navoiy shahar	184,7	145,9	14,8	24,0
Zarafshon shahar	149,7	118,2	12,1	19,4
tumanlar:				
Karmana	57,6	45,4	4,7	7,5
Konimex	4,1	3,2	0,4	0,5
Qiziltepa	112,2	88,5	9,1	14,6
Navbahor	42,2	33,3	3,4	5,5
Nurota	37,3	29,5	3,0	4,8
Tomdi	3,1	2,5	0,2	0,4
Uchquduq	10,4	8,2	0,9	1,4
Xatirchi	40,8	32,2	3,3	5,3



O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yilning 22 noyabirdagi «2017-2021 yillarda shaharlarda arzon ko`p qavatli uylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-2660 sonli qaroriga asosan viloyatda 2019 yil uchun sakkizta ko`p qavatli namunalı uylari qurilish ishlari jadal ravishda amalga oshirilmoqda.



**Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bulimi**

Nashr uchun mas`ul:
Aloqa telefoni:

J.Fayzullaev
(0379) 223-54-73